

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TLEUOV KUATBAY ORAZBAYEVICH

**PSEVDOPARABOLIK TENGLAMALAR UCHUN YUQORI ANIQLIKDAGI
AYIRMALI SXEMALAR**

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Tleuov Kvatbay Orazbayevich

Pseudoparabolic tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar 3

Тлеуов Куатбай Оразбаевич

Разностные схемы повышенной точности для псевдопараболических
уравнений 23

Tleuov Kvatbay Orazbayevich

High-order accuracy difference schemes for pseudoparabolic equations..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TLEUOV KUATBAY ORAZBAYEVICH

**PSEVDOPARABOLIK TENGLAMALAR UCHUN YUQORI ANIQLIKDAGI
AYIRMALI SXEMALAR**

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/FM1233 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-fizmat.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utebaev Dauletbay

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Normurodov Chori Begaliyevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xudoyberganov Mirzoali O'razaliyevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" avgust soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

133 Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil "28" may da 3-raqamli reestr bayonnomasi)

M.M. Aripov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Z.R. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, fizika-matematika fanlari doktori,
professor

R.D. Aloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi fizika-
matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar tutash muhitlar mexanikasining nostatsionar jarayonlarning matematik modellari uchun aniqligi yuqori bo‘lgan sonli usullarni yaratishga bag‘ishlangan. Bunda, to‘lqin tenglamalari uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalar, gaz va suyuqliklar mexanikasi, biologik va astrofizikadagi jarayonlarning psevdoparabolik tenglamalar bilan ifodalanuvchi matematik modellari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishga alohida e‘tibor berilmoqda. Silliqlik va nosilliqlik yechimlar sinflarida Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi ko‘p parametrlilik ayirmali sxemalarni yaratish hisoblash matematikasi va matematik modellashtirish sohalarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shu sababli, sohalarida dastlabki differensial masala yechimining silliqlikiga tabiiy talablarda yuqori aniqlikdagi tejamkor ayirmali sxemalarini qurish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda amaliy matematika sohasidagi tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri matematik fizikaning chiziqli va nochiziqli tenglamalarini, asosan analitik yechimini topish murakkab bo‘lgan Sobolev tipidagi tenglamalarini, shu jumladan, psevdoparabolik tenglamalarini yechish uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu munosabat bilan Sobolev tipidagi psevdoparabolik tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni sonli yechishning yuqori aniqlikdagi usullarini ishlab chiqish zarur. Shu bois, Sobolev tipidagi psevdoparabolik tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishga yo‘naltirilgan yuqori aniqlikdagi ko‘p parametrlilik turg‘un sonli usullarni ishlab chiqish zamonaviy matematik fizika va hisoblash usullari sohasidagi dolzarb va maqsadli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan fizika, mexanika, ekologiya va energetika sohalaridagi amaliy masalalarning matematik modellariga sonli usullarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. So‘nggi yillarda aniqligi yuqori turg‘un va tejamkor ayirmali sxemalarni ishlab chiqish, Sobolev tipidagi yuqori tartibli vaqt xosilasiga nisbatan yechilmagan nostatsionar tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali qurish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jahon standartlari darajasida ilmiy natijalarga erishish O‘zR FA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi¹. Qarorni amalga oshirish uchun matematik fizikaning nostatsionar tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi sonli usullarni qurish va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son Qarori.

ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishning IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, matematik fizika masalalarini yechishning sonli usullarini ishlab chiqishga A.N. Tixonov, A.A. Samarskiy, G.I. Marchuk, N.N. Yanenko, S.K. Godunov, R. Richtmayer, O.A. Ladyzhenskaya, V.L. Makarov, A.V. Gulin, M.N. Moskalkov, P.N. Vabishchevich, P.P. Matus, M.M. Aripov, R.D. Alov, J. Fromm, E. Tarkel, V. Wendroff va boshqada ko'plab olimlarning tadqiqotlari fundamental hissa qo'shdi. Parabolik va psevdoparabolik tenglamalar uchun boshlang'ich chegaraviy masalalarni yechishning sonli usullari alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday masalalar uchun analitik va sonli tadqiqotlar P.Ya. Polubarina-Kochina, E.S. Dzektsler, S.A. Gabov, A.G. Sveshnikov, A.B. Alshin, M.O. Korpusov, Yu.D. Pletner, N.N. Kalitkin, A.M. Naxushev, A. Ashyralyyev, Ch. Ashyralyev, E.A. Alshina, A.A. Zamishlyeva, B.V. Rogov, M.X. Beshtokov, Z.Ya. Naxusheva, M.A. Kerefov, A.I. Kojanov, S.X. Gekkieva, B.S. Ablabekov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Shu kabi masalalarni yechishning yuqori aniqlikdagi sonli usullarini qurish va tadqiq qilish M.M. Moskalkov, P.N. Vabishchevich, P.P. Matus, E.A. Alshina, A.A. Zamishlyeva, M.M. Aripov, D. Utebaev va boshqalarning ishlarida amalga oshirilgan. Matematik fizikaning nosilliq yechimlarga ega nostatsionar tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi sonli usullar A.A. Samarskiy, G.I. Marchuk, V.L. Makarov, V.V. Shaydurova, V.I. Agoshkov, M.M. Moskalkov, M.M. Aripov, D. Utebaevlarning ilmiy ishlarida qurilgan va tadqiq qilingan. Ularning ishlarida, asosan, chekli ayirmalar va chekli elementlar usullariga asoslangan yuqori approksimatsiyaga ega ayirmali sxemalarning aniqlik baholari olingan. Shuningdek, bunday tadqiqotlar Sh.E. Mekaladze, D. Duglas, A.A. Samarskiy, D. Brembl, I.V. Fryazinov, P.P. Matus, B.D. Utebaev, V.T.K. Tuyen, T. Vanglarning ilmiy ishlarida o'rganilgan, bu yerda parabolik va giperbolik tipdagi chiziqli va kvazichiziqli tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi kompakt, monoton ayirmali sxemalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, N.N. Kalitkin, A.B. Alshin, E.A. Alshinalarning ilmiy ishlarida Sobolev tipidagi nostatsionar tenglamalar uchun kvazitengo'lchovli to'rlarda ikkinchi tartibli aniqlikga ega ayirmali sxemalar qaralgan. Xuddi shunday tadqiqotlar K. Aziz, A. Sellari, V.H. Hundsdorfer, J.C. Verver ishlarida ham olib borilgan.

Parabolik va psevdoparabolik tenglamalarni fazo bo'yicha chekli ayirmalar usuli yoki chekli elementlar usuli asosida approksimatsiyalashda (to'g'riklar usuli) katta o'lchovli birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi olinadi. Birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar M.M. Moskalkov, P.N. Vabishchevich, M.M. Aripov, D. Utebyevlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Respublikamizda chiziqli va nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalarning sonli usullarini qurish va tadqiq qilish bilan M.M. Aripov, B. Xujayorov, R.D. Aloyev, X. Shadmetov, Ch.B. Normurodov, A.R. Xayotov, A.S. Matyoqubov, Z.R. Rahmonov, Sh.A. Sa'dullaeva va boshqalar shug'ullanadi. Xususan, M.M. Aripov, Z.R. Rahmonov, Sh.A. Sa'dullaevalarning ilmiy ishlari nochiziqli parabolik tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalarni matematik modellashtirish va sonli yechishga bag'ishlangan. R.D. Aloyev, A.S. Matyoqubovlarning ishlari birinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglamalar sistemalarini yechishning sonli usullariga bag'ishlangan. B. Xujayorov, X. Shadmetov, Ch.B. Normurodov, A.R. Xayotovlarning ilmiy ishlari esa matematik fizikaning turli masalalarini yechishning sonli usullariga bag'ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining "Amaliy matematikaning chiziqli va nochiziqli nostatsionar tenglamalarini yechishning sonli usullari" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi silliq va nosilliq yechimlar sinflarida Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi ko'p parametrli ayirmali sxemalarni qurish, shuningdek, ularning turg'unlik shartlarini, yaqinlashish va aniqlik baholarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlik va namlikni ko'chirish tenglamasi uchun silliq yechimlar sinfida chekli ayirmalar usuli asosida yuqori aniqlikka ega oshkor va oshkormas ayirmali sxemalarini ishlab chiqish;

silliq va nosilliq yechimlar sinflarida Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalarni ishlab chiqish;

umumlashgan yechimlarga ega ko'p o'lchovli psevdoparabolik tenglama uchun ko'p parametrli ayirmali sxemalarini qurish va tadqiq qilish;

Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar yechimlarining silliqligiga minimal talablarda yaqinlashish va aniqlik aprior baholarini olish.

Tadqiqotning obykti Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar.

Tadqiqotning predmeti Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarga yuqori tartibli aniqlikdagi sonli usullarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida algebra, funksional analiz, differensial tenglamalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, sonli modellashtirish, shuningdek, algoritmlash texnologiyasi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

issiqlik va namlik ko‘chish tenglamasi uchun silliq yechimlar sinfida yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan, approksimatsiya xatoligi, turg‘unlik shartlari va aniqlik baholari olingan;

silliq va nosilliq yechimlar sinflarida Aller tenglamasi uchun chekli ayirmalar va chekli elementlar usullarining yuqori aniqlikdagi ko‘p parametrlil ayirmali sxemalari ishlab chiqilgan;

zaif metrikada bir va ko‘p o‘lchovli Aller-Lykov tenglamasi uchun ko‘p parametrlil ayirmali sxemalar qurilgan hamda turg‘unlik shartlari olingan va yaqinlashish tezligi baholangan;

Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning analitik yechimi silliqlikiga minimal talablarda ayirmali sxemalar orqali olingan sonli yechim va analitik yechim o‘rtasidagi aniqlik baholari keltirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chekli ayirmalar va chekli elementlar usullari asosida silliq va nosilliq yechimlar sinflarida psevdoparabolik tenglamalarni sonli yechish uchun yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar qurilgan;

Aller va Aller-Lykov tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarga yuqori aniqlikdagi algoritmlar qurilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan tasdiqlarning ishonchliligi funksional analiz va sonli usullar nazariyasining usullaridan foydalanib qat‘iy isbotlangan teoremlar bilan izohlanadi, shuningdek, hisoblash eksperimenti asosida nazariy xulosalarni tasdiqlash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyada olingan natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar filtratsiya nazariyasi, yarimo‘tkazgichlar fizikasining amaliy masalalarini sonli yechish va ayirmali sxemalar nazariyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar, shuningdek, chekli ayirmalar va chekli elementlar usullari asosida qurilgan algoritmlar va dasturlardan turli xil xususiy hosilali psevdoparabolik tenglamalarni sonli yechish uchun foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli psevdoparabolik tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish bo‘yicha olingan natijalar quyidagi sohalarda qo‘llanilgan:

Aller va Aller-Lykov psevdoparabolik tenglamalar uchun qurilgan chekli ayirmalar usulining yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalari asosida filtratsiya masalalarini taqribiy yechish uchun yaratilgan optimal ayirmalar usuli va bu usulning approksimatsiya xatoligi, turg‘unligi va aniqligi bo‘yicha olingan natijalardan Ф3-201905171 “G‘ovak muhitlarda suyuqlik va gazlarni anomal filtrlash jarayonini tadqiq etish uchun gidrodinamik modellar va samarali algoritmlar” mavzusidagi amaliy loyihada ixtiyoriy filtratsiya sohasida g‘ovak muhitdagi neft va gaz filtratsiya masalasini hal qilishning parallel hisoblash algoritmini yaratishda foydalanilgan (O‘zR FA V.I. Romanovskiy nomidagi matematika institutining 2025-

yil 17-fevraldagi 2/95-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning tadqiq etilishi gaz va neft konlarini o'zlashtirishning ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha hisoblash natijalarini vizuallashtirish uchun dasturiy modular ishlab chiqish imkonini bergan.

Pseudoparabolik tenglamalar uchun qurilgan chekli ayirmalar usulining yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi ilmiy laboratoriyada Orol dengizi mintaqasining tabiiy muhiti uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni bashorat qilish, baholash to'g'risida ma'lumot olish va Orol mintaqasida atrof-muhit va suv resurslarining sifatini yaxshilash bo'yicha xulosalar qabul qilishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 6-fevraldagi 02/18-436-sonli ma'lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalarning qo'llanilishi Orol mintaqasining ekotizimlarini baholash va dasturiy ta'minot tizimini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 9 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. Bundan tashqari, kompyuter dasturlari uchun 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va masalaning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Issiqlik va namlikni ko'chirish tenglamasi uchun ayirmali sxemalar**" deb nomlangan **birinchi bobida** ba'zi yordamchi materiallar keltirilgan, keyingi tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan materiallar berilgan. Chekli ayirmalar usuli asosida umumlashgan Aller tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani yechishning yuqori aniqlikdagi sonli usuli ishlab chiqilgan va tadqiq qilingan. Qurilgan ayirmali sxemaning turg'unligi va yaqinlashishi isbotlangan va ular asosida aniqlik baholari olingan. Hisoblash eksperimenti yordamida sxemalar sinovdan o'tkazilgan va ularning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, ko'p o'lchovli pseudoparabolik tenglama uchun birinchi chegaraviy masalani yechish uchun yuqori aniqlikdagi sonli usul ishlab chiqilgan va tadqiq qilingan. Ayirmali sxemalarning turg'unlik nazariyasi

natijalari asosida aprior baholar olingan va ular asosida qurilgan algoritmlarning ikkala o'zgaruvchi bo'yicha to'rtinchi tartibli tezlik bilan yaqinlashishi isbotlangan. Hisoblash eksperimenti asosida nazariy ma'lumotlarni tasdiqlovchi test hisoblari olib borilgan.

Birinchi paragrafda ba'zi yordamchi materiallar keltirilgan.

Ikkinchi paragrafda $\bar{Q}_T = \{(x,t), 0 \leq x \leq l, 0 < t \leq T\}$ yopiq fazo-vaqt sohasida bir o'lchovli Aller tenglamasi uchun quyidagi boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan:

$$\theta \frac{\partial u}{\partial t} = Lu + \mu \frac{\partial}{\partial t}(Lu) + f(x,t), \quad (x,t) \in Q_T, \quad (1)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \quad x \in \bar{\Omega}, \quad (2)$$

$$u(0,t) = \mu_1(t), \quad u(l,t) = \mu_2(t), \quad t \in (0,T]. \quad (3)$$

Bu yerda $Lu = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$, $Q_T = \bar{Q}_T \cap \Gamma$, θ, μ - doimiylar.

(1) tenglama dastlab fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha approksimatsiyalangan, natijada birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun quyidagi Koshi masalasi olingan:

$$\bar{D} \frac{du_h}{dt} + \bar{A}u_h = \bar{f}_h, \quad t \in (0,T], \quad (4)$$

$$u_h(0) = u_{h,0}, \quad x_i \in \bar{\omega}_h, \quad (5)$$

bu yerda $\bar{D} = \theta E - \mu \bar{\Lambda}$, $\bar{A} = -\bar{\Lambda}$ ayirmali operatorlar $\theta E + \mu \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ va $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ differensial operatorlarni fazo bo'yicha tortinchi tartib bilan approksimatsiyalaydi.

So'ngra (4), (5) Koshi masalasi quyidagi ayirmali sxema bilan approksimatsiyalanadi:

$$\bar{D}_t y_i + \bar{A}y^{(\sigma_1, \sigma_2)} = \varphi, \quad y^0 = u_0, \quad y^1 = u_1, \quad (6)$$

$$\bar{D}u_1 = \bar{\Lambda}u_0 + f(x,0),$$

$$y^{(\sigma_1, \sigma_2)} = \sigma_1 \hat{y} + (1 - \sigma_1 - \sigma_2)y + \sigma_2 \check{y} = y + \tau(\sigma_1 - \sigma_2)y_i + \frac{\tau^2}{2}(\sigma_1 + \sigma_2)y_{\bar{i}t}.$$

Ayirmali sxemalarning turg'unlik nazariyasi natijalari asosida (6) ayirmali sxema yechimining aprior bahosi olindi va ular asosida quyidagi natija isbotlandi.

1-teorema. Faraz qilaylik, $\sigma_1 + \sigma_2 > 0.5$, $\sigma_1 \geq \sigma_2$ shartlar bajarilsin. U holda (6) ayirmali sxemaning yechimi (1)–(3) differensial masalaning silliq yechimiga yaqinlashadi va

$$\|y(t) - u(t)\|_A \leq M(\tau^2 + h^4), \quad y(t), u(t) \in H_h$$

aniqlik bahosi o'rinli bo'ladi.

Bu yerda H_h, H uzluksiz funksiyalar fazosiga mos diskret funksiyalar fazosi.

Paragraf oxirida test hisoblari natijalari keltirilgan.

Uchinchi paragraf quyidagi ko‘p o‘lchovli boshlang‘ich-chegaraviy masala uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish va tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

$$\frac{\partial}{\partial t}(Lu - \theta u) + \mu^2 Lu + \lambda u = -g(x, t), \quad (x, t) \in Q_T, \quad (7)$$

$$u|_{t=0} = u_0(x), \quad x \in \bar{\Omega} = \Omega \cup \Gamma, \quad (8)$$

$$u|_{x \in \Gamma = \partial\bar{\Omega}} = \mu(t), \quad t \in (0, T], \quad (9)$$

bu yerda $Lu = \sum_{m=1}^3 \frac{\partial^2 u}{\partial x_m^2}$, $\theta, \mu, \lambda - const$.

(7)–(9) masala uchun quyidagi ayirmali sxemalar qurilgan va tadqiq qilingan:

1.1⁰-sxema - fazo bo‘yicha to‘rtinchi tartibli ayirmali approksimatsiyaga

$$\bar{D} \frac{du_h}{dt} + \bar{A}u_h = \bar{g}_h, \quad t \in (0, T], \quad u_h(0) = u_{h,0}, \quad (10)$$

$$\bar{D} = \bar{\Lambda} + \theta E, \quad \bar{A} = \mu^2 \bar{\Lambda} + \lambda E, \quad \bar{D} \in H_h, \quad \bar{A} \in H_h, \quad \bar{g}_h = g + \sum_{m=1}^3 \frac{h_m^2}{12} \Lambda_m g$$

va vaqt bo‘yicha ikkinchi tartibli approksimatsiyaga ega sxema:

$$\bar{D}y_t + \bar{A}y^{(\sigma_1, \sigma_2)} = \varphi, \quad y^0 = u_0, \quad y^1 = u_1, \quad (11)$$

bu yerda $y_t = (y^{n+1} - y^{n-1}) / (2\tau)$, $y^n = y(t_n)$, $u_1 = (E - \tau \bar{D}^{-1} \bar{A})u_0 + \tau \bar{D}^{-1} g(x, 0)$, φ to‘rli funksiyaga g ni approksimatsiyalaydi;

1.2⁰-sxema - fazo va vaqt bo‘yicha to‘rtinchi tartibli approksimatsiyaga ega sxema:

$$\bar{D}y_t - \frac{\tau^2}{12} \bar{A}\dot{y}_t + \bar{A}y^{(0.5)} = \varphi_1, \quad \gamma \bar{D}\dot{y}_t + \alpha \bar{A}y_t - \beta \bar{A}\dot{y}^{(0.5)} = \varphi_2, \quad (12)$$

$$y^0 = u_0, \quad \dot{y}^0 = \bar{D}^{-1}(f^0 - \bar{A}u_0), \quad (13)$$

bu yerda $\varphi_1 = \frac{1}{\tau} \int_{t_n}^{t_{n+1}} \bar{g}(t) dt$, $\varphi_2 = \frac{1}{\gamma\tau} \int_{t_n}^{t_{n+1}} \bar{g}(t)(s_1 \mathcal{G}_2^{(1)} + s_2 \mathcal{G}_2^{(2)}) dt$, $s_1 = 15\gamma - 35\alpha / 3$,

$s_2 = 140\gamma - 350\alpha / 3$, $\mathcal{G}_1^{(1)} = 1/2$, $\mathcal{G}_2^{(3)} = \tau\xi(1-\xi)(\xi - 1/2)$, $\xi = \tau^{-1}(t - t_n)$.

Quyidagi teoremlar isbotlangan.

2-teorema. Faraz qilaylik, $\sigma_1 + \sigma_2 > 0.5$, $\sigma_1 \geq \sigma_2$ shartlar bajarilsin. U holda (11) sxemaning yechimi $y^n \in H_h$ (7)–(9) dastlabki masalaning silliq yechimiga yaqinlashadi, ya’ni

$$\|y(x_i, t_n) - u(x_i, t_n)\|_1 \leq M(|h|^4 + \tau^2), \quad (x_i, t_n) \in \bar{\omega}_{\tau h} = \bar{\omega}_\tau \times \bar{\omega}_{h_\alpha}, \quad \bar{\omega}_\tau = \omega_\tau \cup \{0\}$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi.

3-teorema. Faraz qilaylik, $\gamma = \alpha + \beta$, $\alpha, \beta, \gamma = O(\tau^2)$ approksimatsiya shartlari bajarilsin. U holda $\alpha > 0$, $\gamma > 0$ shartlar bajarilganda (12), (13) sxemaning yechimi (7)–(9) masalaning yetarlicha silliq yechimiga yaqinlashadi, ya’ni

$$\|z(t)\|_1 + \|\dot{z}(t)\|_1 \leq M(|h|^4 + \tau^4), \quad z, \dot{z} \in H_h$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda β erkin parametr, $z = y - u$, $\dot{z} = \dot{y} - \dot{u}$ sxema xatoliklari.

(11) va (12), (13) ayirmali sxemalarni realizatsiyalash algoritmlari keltirilgan. Olingan sonli natijalar test misolida nazariy ma’lumotlarga mos keladi.

Dissertatsiyaning “**Aller tenglamasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar**” deb nomlangan **ikkinchi bobida** silliq va nosilliq yechimli (adabiyotlarda Barenblatt-Jeltov-Kochina tenglamasi) Sobolev tipidagi bitta psevdoparabolik tenglama (Aller tenglamasi) uchun yuqori aniqlikdagi chegaraviy masalalarning ayirmali sxemalarini qurish va tadqiq qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich-chegaraviy masala dastlab fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha chekli ayirmalar usuli bilan approksimatsiyalangan va keyinchalik olingan katta o‘lchamli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun fazo bo‘yicha to‘rtinchi tartibli va vaqt bo‘yicha ikkinchi tartibli aniqlikdagi chekli ayirmalar usullari qo‘llanilgan. Shuningdek, vaqt bo‘yicha to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi chekli elementlar usulining sxemalari ko‘rib chiqilgan. Qurilgan ayirmali sxemalarning turg‘unligi, yaqinlashishi va aniqligi haqidagi teoremlar olingan.

Birinchi paragrafda quyidagi ikki o‘lchovli masala qaralgan:

$$\begin{aligned} (\lambda - \Delta) \frac{\partial u}{\partial t} &= \alpha^2 \Delta u + f(x, t), \quad (x, t) \in Q_T, \\ u(x, 0) &= u_0(x), \quad x \in \Omega, \\ u(x, t) &= 0, \quad (x, t) \in \partial\Omega \times [0, T]. \end{aligned} \quad (14)$$

Bu yerda $\Delta = \frac{\partial^2}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2}{\partial x_2^2}$ ikki o‘lchovli Laplas operatori, λ, α - musbat doimiylar,

$Q_T = \Omega \times [0, T]$, $\Omega = \{x: 0 < x_k < l_k, k = 1, 2\}$ C^∞ sinfining $\partial\Omega$ chegarasi bilan chegaralangan soha.

Keltirilgan tenglama yoriq-g‘ovak muhitda suyuqlik filtratsiyasini modellashtiradi. Faraz qilamiz, $\lambda \notin \{\lambda_k\}$, bu yerda $\{\lambda_k\}$ Ω sohada Laplas tenglamasi uchun bir jinsli Dirixle masalasining xos qiymatlari to‘plami.

Ushbu paragrafda qurilgan sxemalar keyingi natijalar uchun qo‘shimcha bo‘lib, bu yerda fazo va vaqt bo‘yicha (14) masalani approksimatsiyalovchi yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar uchun turg‘unlik va aniqlik haqidagi teoremlar isbotlangan.

Ikkinchi paragrafda nosilliq yechimli Allerning namlik ko‘chishi tenglamasi uchun chegaraviy masalalarni yechishning sonli algoritmlari ko‘rib chiqilgan. Chekli elementlar usulining ayirmali sxemalari qurilgan va tadqiq qilingan. Qurilgan ayirmali sxema boshqa sxemalarga nisbatan ma’lum afzalliklarga ega. Masalan, yuqori tartibli

aniqlikdagi sxema, yechimning o'zidan tashqari bir vaqtning o'zida uning hosilasi (tezligi) ham xuddi shu aniqlikda topiladi. Aniqlik bahosini olish uchun aprior baholarni olishning maxsus usuli qo'llanilgan.

Quyidagi ko'rinishda yozilgan Aller tenglamasini ko'rib chiqamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = L_1 u + \sigma \frac{\partial}{\partial t}(L_2 u) + f(x, t), \quad (x, t) \in Q_T = \{x \in \Omega, 0 < t \leq T\}. \quad (15)$$

Bu yerda $L_m u = \sum_{q=1}^p \frac{\partial}{\partial x_q} \left(k_q^m(x) \frac{\partial u}{\partial x_q} \right) - q^m(x)u$, $0 < k_0 \leq k_q^m(x) \leq k_1$, $q^m(x) \geq 0$, $m = 1, 2$,

$x \in \Omega \subset R^p$, $p = 1, 2, \dots$, σ , k_0 , k_1 musbat doimiylar.

(15) tenglama uchun boshlang'ich

$$u(x, 0) = u_0(x), \quad x \in \Omega \quad (16)$$

va chegaraviy shartlar sifatida, masalan, birinchi chegaraviy shartni olamiz:

$$u(x, t) = 0, \quad x \in \Gamma = \partial \bar{\Omega}, \quad t \in [0, T]. \quad (17)$$

(15)–(17) masala uchun umumlashgan masalani qo'yamiz. (15)–(17) masalaning umumlashgan yechimi deb har bir $t \in [0, T]$ uchun $H = W_2^1(\Omega)$ ga tegishli bo'lgan, $\frac{\partial u}{\partial t} \in L_2(Q_T)$ hosilasiga ega barcha $(0, T)$ va $\forall \mathcal{G}(x) \in H$ uchun quyidagi

$$\left(\frac{du(t)}{dt}, \mathcal{G} \right) + \sigma a_1 \left(\frac{du(t)}{dt}, \mathcal{G} \right) + a_2(u(t), \mathcal{G}) = (f(t), \mathcal{G}), \quad \forall \mathcal{G}(x) \in H, \quad u(0) = u_0 \quad (18)$$

tenglamani qanoatlantiruvchi $u(x, t)$ funksiyaga aytamiz. Bu yerga

$$a_m(u(t), \mathcal{G}) = -(L_m u, \mathcal{G}) = \int_{\Omega} \sum_{\alpha=1}^p \left(k^m(x) \frac{\partial u}{\partial x_\alpha} \cdot \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial x_\alpha} + q^m(x)u\mathcal{G} \right) dx, \quad m = 1, 2.$$

Bichiziqli $a_m(u, \mathcal{G})$ shakl uchun $a_m(\mathcal{G}, \mathcal{G}) \geq k \|\mathcal{G}\|_1^2$, $\forall \mathcal{G} \in H$, $k > 0$ baho o'rinli. U holda, $\|\cdot\|$ $L_2(\Omega)$ ning normasi. Shuni ta'kidlash kerakki, L_1, L_2 operatorlarning o'lchamlari har xil bo'lishi mumkin, ya'ni $p_1 \neq p_2$ va L_1 – kuchli elliptik hamda L_2 x_α o'zgaruvchilarga nisbatan barcha ikkinchi hosilalarni o'z ichiga olmaydigan aynigan operator bo'lishi mumkin.

(18) masalaga $u_h(t)$ taqribiy yechim koeffisientlari uchun birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi (Koshi masalasi) mos keladi:

$$D \frac{du_h(t)}{dt} + Au_h(t) = f_h(t), \quad u_h(0) = u_{0,h}. \quad (19)$$

Bu yerda $u_h(t)$ vaqtning istalgan momenti uchun H_h chekli o'lchamli fazoning elementi; D va A operatorlari H_h dan H_h ga harakatlanadi; $D = M + \sigma G_1$, $A = G_2$;

$M = \left((\varphi_i, \varphi_j) \right)_{i,j=1}^N$ H_h qism fazo koordinata sistemasining massa matritsasi;
 $G_m = \left(a_m(\varphi_i, \varphi_j) \right)_{i,j=1}^N$ H_h fazosining $L_m u$, $m=1,2$ operatorlariga javob beruvchi qattqlik matritsasi.

(19) masalani vaqt bo'yicha to'rtinchi tartibli aniqlikdagi chekli elementlar usulining uch parametrli ayirmali sxemasi bilan approksimatsiyalaymiz:

$$Dy_t - \frac{\tau^2}{12} A \ddot{y}_t + Ay^{(0.5)} = \varphi_1, \quad \gamma D \dot{y}_t + \alpha Ay_t - \beta A \dot{y}^{(0.5)} = \varphi_2, \quad y^0 = u_0, \quad \dot{y}^0 = u_1, \quad (20)$$

bu yerda φ_1 , φ_2 (12), (13) ga asosan aniqlandi.

Quyidagi asosiy teorema isbotlangan.

4-teorema. Faraz qilaylik, $A^* = A > 0$, $D^* = D > 0$ va (20) sxemaning approksimatsiya $\alpha + \beta = \gamma$, $\alpha, \beta, \gamma = O(\tau^2)$ va turg'unlik $\alpha > 0$, $\gamma > 0$ shartlari bajarilgan va

$$u(x,t), \frac{\partial u}{\partial t}(x,t) \in L_2 \left\{ [0,T]; W_2^{k+1}(\Omega) \cap \overset{\circ}{W}_2^1(\Omega) \right\}, \quad \frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t) \in L_2 \left\{ [0,T]; W_2^2(\Omega) \right\}$$

bo'lsin. U holda (15)–(17) masalaning yechimini approksimatsiyalovchi (20) sxemaning yechimi uchun quyidagi aniqlik bahosi o'rinli bo'ladi:

$$\begin{aligned} & \|u(x,t) - y(x,t)\|_0 + \sigma \|u(x,t) - y(x,t)\|_1 + \sqrt{\int_0^t \|u(x,t') - y(x,t')\|_1^2 dt'} \leq \\ & \leq M \left\{ \tau^3 \sqrt{(1+\sigma) \int_0^t \left\| \frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t') \right\|_2^2 dt'} + \right. \\ & \left. + h^k \left(\sqrt{(1+\sigma) \int_0^t \left\| \frac{\partial u}{\partial t}(x,t') \right\|_{k+1}^2 dt'} + \sqrt{\int_0^t \|u(x,t')\|_{k+1}^2 dt'} \right) \right\}, \\ & \forall t \in [0,T], \quad M = M(k_0, k_1, T). \end{aligned}$$

Uchinchi paragraf vaqt bo'yicha aniqlikni oshirishga bag'ishlangan. 4-teoremanni umumlashtiruvchi quyidagi natija olindi.

5-teorema. Faraz qilaylik, 4-teorema shartlari bajarilgan va

$$u(x,t) \in L_2 \left\{ [0,T]; W_2^{k+1}(\Omega) \cap \overset{\circ}{W}_2^1(\Omega) \right\}, \quad \frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t) \in L_2 \left\{ [0,T]; W_2^2(\Omega) \right\},$$

bo'lsin. U holda (15)–(17) masalaning shunday yechimini approksimatsiyalovchi (20) sxemaning yechimi uchun quyidagi

$$\begin{aligned} & \sqrt{\int_0^t \|u(x,t') - y(x,t')\|_0^2 dt'} + \sigma \sqrt{\int_0^t \|u(x,t') - y(x,t')\|_1^2 dt'} + \left\| \int_0^t [u(x,t') - y(x,t')] dt' \right\|_1 \leq \\ & \leq M \left\{ \tau^4 \left(\|u(x,0)\|_0 + \sigma \|u(x,0)\|_1 + \sqrt{(1+\sigma) \int_0^t \left\| \frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t') \right\|_2^2 dt'} \right) + \right. \\ & \left. + h^k \left(\|u(x,0)\|_k + \sigma \|u(x,0)\|_{k+1} + \sqrt{(1+\sigma) \int_0^t \|u(x,t')\|_{k+1}^2 dt'} \right) \right\} \end{aligned}$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Aller-Lykov tenglamasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar**” deb nomlangan **uchinchi bobida** chekli ayirmalar usuli asosida umumlashgan Aller-Lykov tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani yechishning yuqori aniqlikdagi sonli usuli ishlab chiqilgan va tadqiq qilingan. Qurilgan ayirmali sxemalarning turg‘unligi va yaqinlashishi isbotlangan va ular asosida aniqlik baholari olingan. Differensial masalalar yechimlarining kuchsiz silliqligida sxemalarning aniqlik baholari olingan. Shuningdek, ayirmali sxemalarning turli kombinatsiyalari ko‘rib chiqilgan.

Qurilgan usullarning turg‘unligi va yaqinlashishi isbotlangan va ular asosida aniqlik baholari olingan. Vaqt bo‘yicha chekli elementlar usulining uch parametrlri ayirmali sxemasini realizatsiyalashning bitta algoritmi ishlab chiqilgan. Hisoblash eksperimenti asosida sxemalar sinovdan o‘tkazilgan va ularning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Birinchi paragrafda Yopiq $\bar{Q}_T = \{(x,t), 0 \leq x \leq l, 0 < t \leq T\}$ sohada Aller-Lykovning quyidagi namlik ko‘chishi tenglamasini

$$\theta \frac{\partial u}{\partial t} + \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = Lu + \mu \frac{\partial}{\partial t}(Lu) + f(x,t), \quad (x,t) \in Q_T, \quad (21)$$

chegaraviy va boshlang‘ich

$$u(0,t) = \mu_1(t), \quad u(l,t) = \mu_2(t), \quad t \in (0,T], \quad (22)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \quad \frac{\partial u}{\partial t}(x,0) = u_1(x), \quad x \in \bar{\Omega}. \quad (23)$$

shartlar bilan ko‘rib chiqamiz. Bu yerda $Lu = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$, $Q_T = \bar{Q}_T \cap \Gamma$, θ, ρ, μ - musbat doimiylar.

Ushbu (21)–(23) turdagi masala filtratsiya, namlik ko‘chishi, issiqlik o‘tkazuvchanlik, matematik biologiya, boshqarish masalalari va boshqa jarayonlarni matematik modellashtirishda yuzaga keladi.

(21) tenglama dastlab fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha approksimatsiyalangan, natijada ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun quyidagi Koshi masalasi olingan:

$$D \frac{d^2 u_h(t)}{dt^2} + B \frac{du_h(t)}{dt} + Au_h(t) = f_h(t), \quad (24)$$

$$u_h(0) = u_{0,h}, \quad \frac{\partial u_h}{\partial t}(0) = u_{1,h}. \quad (25)$$

Bu yerda $D = \rho E$, $B = \theta E - \mu \Lambda$, $A = -\Lambda$, $\Lambda y = y_{\bar{x}x}$, bunda $y_{\bar{x}x} = (y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1}) / h^2$, y to'rtli funksiya $x_i = ih$ tugunda u ni approksimatsiya qiladi, $u_{0,h} = P_h u_0(x)$, $u_{1,h} = P_h u_1(x)$ boshlang'ich shartlarning interpolyatsiyasi, P_h proyeksiyalash operatori, $P_h: H_h \rightarrow H_h$ va $f_h(t) = P_h f(x,t)$. Bu yerda $u_h \in H_h$. Chegaraviy shartlar aniq approksimatsiyalanadi.

B va A ayirmali operatorlar ikkinchi tartibli approksimatsiya xatoligiga ega va ular mos ravishda $\theta E + \mu \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ va $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ differensial operatorlarni approksimatsiyalaydi.

So'ngra (24), (25) masala uchun quyidagi ayirmali sxema qurildi:

$$\tilde{D}y_{\bar{t}} + \tilde{B}y_{\bar{t}} + \tilde{A}y = \tilde{\varphi}, \quad y^n \in H_h, \quad (26)$$

$$y^0 = u_{0,h}, \quad \frac{y^1 - y^0}{\tau} = u_{1,h}(x_i) + 0.5u_{0,\bar{x}x,h}(x_i), \quad x_i \in \omega_h, \quad (27)$$

bu yerda $\tilde{D} = \theta E - \mu \Lambda + \theta \frac{h^2}{12} \Lambda$, $\tilde{B} = \rho \left(E + \frac{h^2}{12} \Lambda \right)$, $\tilde{A} = -\Lambda$, $\tilde{\varphi} = f + \frac{h^2}{12} \Lambda f$.

(26), (27) sxema xatoligi $\psi = O(\tau^2 + h^4)$.

Uch qatlamli ayirmali sxemalarning turg'unlik nazariyasi ma'lumotlaridan foydalanib olingan aprior baholar asosida quyidagi teorema isbotlandi.

6-teorema. Faraz qilaylik, $\tau^2 + \frac{4}{3}\theta h^2 < 4\mu$ shart bajarilsa, (26), (27) sxemaning yechimi (21)–(23) differensial masala yechimiga yaqinlashadi va vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli aniqlikka, fazo bo'yicha to'rtinchi tartibli aniqlikka ega bo'ladi, ya'ni

$$\|y(x_i, t_n) - u(x_i, t_n)\| \leq M (\tau^2 + h^4), \quad (x_i, t_n) \in \bar{\omega} = \bar{\omega}_h \times \bar{\omega}_\tau$$

aniqlik bahosi o'rinli bo'ladi.

Ikkinchi paragrafda nosilliq yechimlar sinfida Aller-Lykov tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan. Qurilgan taqribiy algoritmlarning yaqinlashishi va aniqligi haqidagi teoremlar olingan. Quyidagi masalani qaraymiz:

$$\theta \frac{\partial u}{\partial t} + \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = Lu + \sigma \frac{\partial}{\partial t}(Lu) + f(x,t), \quad (x,t) \in Q_T = \{x \in \Omega, 0 < t \leq T\}, \quad (28)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \quad \frac{\partial u}{\partial t}(x,0) = u_1(x), \quad x \in \bar{\Omega} = \Omega + \Gamma, \quad (29)$$

$$u(x,t) = \mu(t), \quad x \in \Gamma = \partial \bar{\Omega}, \quad t \in (0, T]. \quad (30)$$

Bu yerda
$$Lu = \sum_{m=1}^3 k_m \frac{\partial^2 u}{\partial x_m^2}, \quad x \in \Omega, \quad Q_T = \{(x, t) : x \in \Omega, t \in (0, T)\},$$

$\Omega = \{x = (x_1, x_2, x_3) : 0 < x_m < l_m, m = 1, 2, 3\}$, $\theta, \rho, \sigma, k_m$ - musbat doimiylar.

(28)–(30) masalaning umumlashgan yechimi deb, har bir $t \in [0, T]$ uchun $H = W_2^1(\Omega) \cap \overset{\circ}{W}_2^1(\Omega)$ ga tegishli va $\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} \in L_2(Q_T)$ hosilasiga ega bo‘lgan, $(0, T)$ ning deyarli hammasida quyidagi tenglamani qanoatlantiradigan $u(x, t)$ funksiyasiga aytamiz:

$$\left(\rho \frac{d^2 u(t)}{dt^2}, \mathcal{G} \right) + a_2 \left(\frac{du(t)}{dt}, \mathcal{G} \right) + a_1(u(t), \mathcal{G}) = (f(t), \mathcal{G}), \quad \forall \mathcal{G}(x) \in H, \quad (31)$$

$$u(0) = u_0, \quad \frac{du}{dt}(0) = u_1. \quad (32)$$

Bu yerda

$$a_1(u(t), \mathcal{G}) = -(Lu, \mathcal{G}) = \int_{\Omega} \sum_{m=1}^3 \left(k_m \frac{\partial u}{\partial x_m} \cdot \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial x_m} \right) dx,$$

$$a_2(u(t), \mathcal{G}) = (u - L_2 u, \mathcal{G}) = \int_{\Omega} \sum_{m=1}^3 \left(\sigma k_m \frac{\partial u}{\partial x_m} \cdot \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial x_m} + \theta u \mathcal{G} \right) dx,$$

$$u = u(t) \in H, \quad \forall t \in [0, T].$$

$a_m(u, \mathcal{G})$ shakllarni chekli ayirmalar usuli bilan approksimatsiya qilib, (31), (32) dan quyidagi masalaga kelamiz:

